

Date: 17th April-2025

"QORAQALPOG'ISTONDA PARRANDALARDA UCHRAYDIGAN PARAZITAR KASALLIKLAR VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI"

Atanazarov Kural Maulenovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, katta o'qituvchi.

Yusupov Azamat Rustam O'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, assistent.

Khojamuratova. Azada Yakupbay qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, talaba.

Annotatsiya: Qoraqalpog'iston Respublikasida parrandachilik sohasining rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganiga qaramay, kasalliklar uning samaradorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqot davomida To'rtko'l tumanining Sho'roxon jamoa xo'jaligida parrandalardagi parazitlar kasalliklari o'rganildi. Tahlillar natijasida jami 72 ta o'lgan tovuq tekshirilganda, ularning 24 tasi invazion kasalliklardan nobud bo'lgani aniqlandi. Asosiy parazitlar kasalliklari sifatida askaridoz (*Ascaridia galli*), koksidioz (*Eimeria* spp.), tovuq kanallari (*Dermanyssus gallinae*, *Ornithonyssus sylviarum*) va tovuq bitlari (*Menacanthus stramineus*) aniqlandi. Koksidioz eng keng tarqalgan parazitlar kasallik bo'lib, tovuqlarning ichaklariga ta'sir qilib, ozuqa hazmini buzadi, tuxum mahsuldorligini kamaytiradi va o'limga olib keladi. Parazitlar kasalliklarni oldini olish uchun gigiyenik choralar, profilaktik vaktsinalar va insektitsidlardan foydalanish muhim. Tovuqlarni muntazam tekshirib borish va yangi kelganlar uchun karantin tadbirlarini qo'llash yuqumli kasalliklarni oldini olishda asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Parrandachilik, tovuq kasalliklari, koksidioz, tovuq kanasi, tovuq biti, *Dermanyssus gallinae*, *Ornithonyssus sylviarum*, *Menacanthus stramineus*, *Ascaridia galli*, *Eimeria tenella*, profilaktika, dezinfeksiya, insektitsidlari.

Kirish. Qoraqalpog'iston Respublikasida Qo'ng'iro't, Bo'zatov, Mo'ynoq va Taxtakopir tumanlarida keyingi 2022-2025 yillar mobaynida oilaviy chorvachilik kooperatsiyalari tashkil qilish bo'yicha ishlar davom etayotganligi, umumiy qiymati 490 mlrd so'mlik 236 ta chorvachilik sohasidagi loyihalar shakllantirilganligi, bugungi kunda 119,6 mlrd so'mlik 94 ta loyihalar amalga oshirilganligi parrandachilik sohasida dadil ildamlayotganligimizdan dalolat beradi. (2020 yil 3 iyul, PQ-4776-son qarori).

Ayniqsa parrandachilik xo'jaliklariga — o'z xo'jaliklarida yetishtirilib, sotilgan tuxumning har bir donasi uchun 50 so'm hamda parranda go'shtining har bir kilogrammi uchun 2022 yil 1 yanvardan boshlab 2024 yil 1 yanvargacha qadar 2 500 so'm (bunda subsidiya qo'shilgan qiymat solig'idan vaqtincha ozod qilish bo'yicha imtiyoz berilishi



Date: 17th April-2025

ushbu soxaning ildam qadamlar bilan oldinlab borishiga asos bo'lmoqda(2022 yil 6 iyul, 367-son qarori.)

Subsiya bu — chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun yuridik shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga qaytarmaslik sharti bilan budjetdan ajratiladigan mablag'ligini takidlab o'tmoqchimiz.

Asosiy qism. Shuncha imkoniyatlar bor ekan nimaga parrandachilikda hali xam oqsashlar bor degan savol tug'iladi?

Qoraqalpog'iston Respublikasida parrandachilikka to'sqinlik qilayotgan kasalliklarni sanab o'tsak.

Infeksion kasalliklar.

Invazion kasalliklar.

Ichki yuqumsiz kasalliklar

Ushbu kasalliklar ichida parazitlar kasalliklar 20% ni egallasada ushbu kasalliklarning yashirin shaklda o'tishi parrandalarning tuxum va go'sht mahsulotlarining kamayishiga va oxir oqibat parrandalar o'limiga olib keladi.

Parazitlar kasalliklarni o'rganish maqsadida To'rtko'l tuman Sho'roxon jamoa xo'jaliklarida aholixonadonlarida boqilayotgan parrandalar olindi va 2 oy maboynida kasalliklardan o'lgan parrandalar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialining veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi laboratoriyasida K. I. Skryabinning to'liq gelmintologik yorib ko'rish usuli bilan tekshirishdi.

Tekshirish jami 72 ta kasalliklardan o'lgan parrandada olib borilib shundan 24 tasi invazion kasallikdan, 32 tasi infeksiya kasallikdan qolgan 16 boshi ichki yuqumsiz kasalliklardan nobud bo'lgani aniqlandi. Tekshirishlarimiz invazion kasalliklarga qaratilgan bo'lganligi uchun asosiy e'tiborni invazion kasalliklarga qaratdik.

Tekshirishlar natijasida o'lgan 24 bosh parrandaning 6 boshida askaridoz, 8 boshida koksidioz, 6 boshida kanalar va 6 boshida bitlar uchradi.

Askaridoz kasallik qo'zg'atuvchisi – *Ascaridia galli*, oqsimon tanaga ega va 5-12 sm uzunlikdagi nematoda. Ularning asosiy lokalizatsiyasi ichaklar (ayniqsa, yupqa ichak) bo'lib, u yerda parazitlar ozuqaviy moddalarni so'rib, parrandalarni ozg'inlashtirib, immunitetini pasaytiradi.

Taraqqiyot sikli

Tuxumlar parranda axlati bilan tashqi muhitga tushadi.

Namlik va haroratga bog'liq holda 10-20 kun ichida tuxumlar ichidan invazion lichinkalar rivojlanadi.

Parranda og'zi orqali invazion tuxumlar organizmga kirib, yupqa ichakka yetib boradi va u yerda lichinkalar ajralib chiqadi.

7-8 hafta ichida ulg'ayib, balg'amdor qabatga zarar yetkazib, askaridlar voyaga etadi.



Date: 17th April-2025

Koksidioz – bu parrandalarda (tog‘uq, bedana, g‘oz, o‘rdak va boshqa qushlar) uchraydigan yuqumli kasallik bo‘lib, u Eimeria turkumiga mansub koksidiyalar (bir hujayrali parazitlar) tomonidan keltirib chiqariladi. Bu kasallik asosan ichaklarni zararlaydi va jiddiy iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Aniqlangan turlar:

E. tenella turi eng ko‘p aniqlangan (35,4%)

E. acervulina (32,5%)

E. maxima (32,1%)

Koksidiozning sabablari

Parazitlar asosan Eimeria turiga mansub bo‘lib, ular parrandaning ichaklariga tushib, ko‘payadi va uning to‘qimalarini shikastlaydi.

Kirlangan ozuqa va suv.

Yomon sanitariya sharoiti.

Parranda zichligi yuqori bo‘lgan ferma va fabrikalar.

Biz uchratgan tovuq kanalari:

Dermanyssus gallinae (Qizil kana) – eng keng tarqalgan.

Asosan tungi vaqtda tovuq qonini so‘rib, ularni zaiflashtiradi.

Parrandaxonaning yoriqlarida, uyalarda va pol ostida yashaydi.

Iqlimga chidamli va tez ko‘payuvchi parazit.

Qonsizlanish (anemiya) va tuxum mahsuldorligining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Ornithonyssus sylviarum (Tanada yashaydigan kana) – ikkinchi o‘rinda.

Bu kana tovuqning parlari orasida va tanasida doimiy ravishda yashaydi.

Harorat yuqori bo‘lgan mavsumlarda tez ko‘payadi.

Parranda terisini shikastlab, yallig‘lanish va qichishishga olib keladi.

1. Tuzilishi va morfologiyasi: Qizil kanalarning tanasi quyidagi qismlardan iborat:

Somati (tanasi): Ellips shaklida bo‘lib, uzunligi 0.6 – 1 mm atrofida. Tanasi yumshoq xitin bilan qoplangan. Ranglari odatda oq yoki kulrang bo‘ladi, lekin qon so‘rgandan keyin qizil tus oladi. Kalsi (saron): Kananing old qismida joylashgan. Unda xelitseralar (cho‘ziluvchan tishsimon organlar) mavjud bo‘lib, ular tovuq terisini teshib, qon so‘rishga yordam beradi. Oyoqlar: To‘rt juft (8 ta) oyoqlari bor. Oyoqlarida chaqish va ushlash uchun maxsus tutg‘ichlar (tozalar) mavjud. Oyoqlar yuqori harakatchanlikka ega bo‘lib, tez yurish imkonini beradi. Ichki a‘zolari: Ovqat hazm qilish tizimi qon so‘rishga moslashgan. Tanasida maxsus bezlar bor, ular toksik moddalar ishlab chiqaradi. Nerv tizimi ganglion tuzilmasi bo‘lib, kananing harakat va hujum qilish qobiliyatini boshqaradi. Tana qoplamasi: Kananing tana yuzasi xitin bilan qoplangan, u esa yuqori darajadagi chidamlilikka ega. Tanasidagi maxsus bosim sezgich organlari tovuqlar harakatini his qilishga yordam beradi.

Tajribalarimizda Menacanthus stramineus (Katta tovuq biti) uchratdik. Uning uzunligi 2-3.5 mm, juda tez harakatlanadi. Tovuqlarning yumshoq teri qismlarida yashaydi. Ovqatlanish manbai: teri, parlar va qon (terini teshib yuborish orqali). Tovuqlarda alomatlari: qanot qo‘yilgan joylarida qichishish, terining qizarishi.



Muhokama

Tadqiqot davomida Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanida parrandachilik xo'jaliklarida keng tarqalgan parazitlar kasalliklar o'rganildi. 72 ta o'lgan tovuqlarning patologoanatomik tekshiruvi natijalari shundan dalolat beradiki, invazion kasalliklar (20%), infeksiyon kasalliklar (44.4%) va ichki yuqumsiz kasalliklar (22.2%) eng keng tarqalgan sabablar hisoblanadi.

Parazitlar kasalliklardan esa eng ko'p uchraydiganlari:

Askaridoz (*Ascaridia galli*) – tovuq yuqqa ichagini zararlab, ozuqa hazmini buzadi va immunitet tushishiga sabab bo'ladi.

Koksidioz (*Eimeria* spp.) – ichakda parazitlik qiladi, qonli najas chiqarib tananing qonsizlanishiga sabab bo'ladi, natijada tuxum mahsuldorligi pasayadi.

Kanalar (*Dermanyssus gallinae* va *Ornithonyssus sylviarum*) – tovuq teri va parlari orasida yashab, qonini so'radi va qichishish, qonsizlanishiga sabab bo'ladi.

Tovuq bitlari (*Menacanthus stramineus*) – parranda parlari orasida yashaydi va terini shikastlaydi.

Qoraqalpog'istonda koksidioz eng keng tarqalgan parazitlar kasallik bo'lib, *Eimeria tenella* (35,4%), *Eimeria acervulina* (32,5%) va *Eimeria maxima* (32,1%) aniqlangan. Bu kasallik parrandaning ichaklarini shikastlab, og'ir hollarda qonsizlanish va o'limga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar: Kanalar va parazitlarga qarshi muntazam profilaktika o'tkazish lozim.

Parrandaxonalar sanitariyasini yaxshilash: har hafta tozalash, insektitsidlar va ohak bilan ishlov berish.

Antiparazitlar dori vositalarini qo'llash (Amprolium, Ivermektin, Sulfanilamidlar).

Yangi kelgan tovuqlarni karantinda saqlash va tekshiruvdan o'tkazish.

Tovuqlar va tovuqxona gigiyenasini muntazam tekshirib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avezimbetov, S., & Bekmurotov, K. (2021). Methods of microscopic evaluation of sperm obtained from bulls for scientific work and in production. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 403-407.
2. Avezimbetov, S., Madetova, M., Madetova, N., & Joldasbaeva, V. (2023). VETERINARIYADA GEMOTERAPIYA. ANEMIYALAR VA QON ZARDOBIDA TEMIRNI ANIQLASH, QON RETRAKSIYASINI ANIQLASH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 509-516.
3. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1778-1781.
4. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.



Date: 17th April-2025



5. Tlepovich, E. A., Shavkat, A., & Karamaddinovich, B. K. (2025). O 'ZBEKISTONDA QO 'YLARNING ICHAK SESTODLARI BILAN ZARARLANISHI: EPIZOOTOLOGIK TAHLIL, DIAGNOSTIKA VA MAVSUMIY O 'ZGARISHLAR. *Modern World Education: New Age Problems–New solutions*, 2(3), 12-18.
6. Tlepovich, E. A., Shavkat, A., & Karamaddinovich, B. K. (2025). QORAQALPOG 'ISTON RESPUBLIKASI XO 'JAYLI TUMANIDA QO 'YLARNING ICHAK SESTODOZLARI: TARQALISHI, DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(2), 37-44.
7. Shavkat, A., Karamaddinovich, B. K., & qizi Zaripboyeva, Z. S. (2025). INFESTATION OF SHEEP WITH INTESTINAL CESTODES IN UZBEKISTAN: EPIZOOTIOLOGICAL STUDIES, NEW PARASITIC SPECIES, AND ENVIRONMENTAL FACTORS. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(2), 151-156.
8. Shavkat, A., Karamaddinovich, B. K., & qizi Zaripboyeva, Z. S. (2025). INTESTINAL CESTODE INFESTATION IN SHEEP IN UZBEKISTAN: EPIZOOTIOLOGICAL STUDIES, ECOLOGICAL FACTORS, AND SEASONAL DYNAMICS. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 190-196.
9. Shavkat, A., Karamaddinovich, B. K., & qizi Khojamuratova, A. Y. (2025). INFECTION OF SHEEP WITH INTESTINAL CESTODES IN UZBEKISTAN: EPIZOOTIOLOGICAL ANALYSIS, ECOLOGICAL FACTORS, AND PREVENTIVE MEASURES. *The latest news and research in education*, 2(2), 69-77.
10. Kaniyazov, A. J., & Shakarboev, E. B. (2023). Helminths of horses in Karakalpakstan: seasonal, spatial and age dynamics. *Acta Biologica Sibirica*, 9, 539-548.
11. Shakarboev, E. B., Berdibaev, A. S., Abdurakhmonov, S. A. U., & Kaniyazov, A. J. (2024). Nematode Dioctophyme Renale Goeze, 1782 (Nematoda, Dioctophymatidae) in Predatory Mammals in Karakalpakstan. *European Journal of Veterinary Medicine*, 4(2), 1-3.
12. Kaniyazov, A. J., & Shakarboev, E. B. (2023). Helminths of horses in Karakalpakstan: seasonal, spatial and age dynamics. *Acta Biologica Sibirica*, 9, 539-548.
13. O'rinbosarovich, SM, Maryam, Y., & Gayratdin, O. (2025). HAYVONLARNI OPERATSIYA QILISHDA UMUMIY ANESTEZIYANI QO 'LLASH USULLARI. *Innovatsion texnologiyalar asosida fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash*, 2 (3), 28-31.
14. O'rinbosarovich, S. M., Maryam, Y., & Gayratdin, O. (2025). BUZOQLARNING KINDIK CHURRASI KASALLIGI VA UNING JARROHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH USULLARI. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(3), 21-23.
15. O'rinbosarovich, S. M., Maryam, Y., & Gayratdin, O. (2025). ITLARDA MAHALLIY ANESTEZIYANI QO'LLASH USULLARI. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(3), 16-20.

Date: 17th April-2025

16. O‘rinbosarovich, S. M., Maryam, Y., & Gayratdin, O. (2025). OTLARNI AXTALASHDA OG ‘RIQSIZLANTIRISH USULLARI. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(3), 24-27.

17. O‘rinbosarovich, S. M., Maryam, Y., & Gayratdin, O. (2025). URG ‘OCHI HAYVONLAR JINSIY ORGANLARI JARROHLIK KASALLIKLARI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(3), 23-27.

